# Surxondaryodagi umumta’lim maktablarini yangi o’quv yiliga tayyorlash uchun 11 mlrd so’mdan ortiq mablag’ ajratildi

Bugun viloyat hokimi Ulug’bek Qosimov rahbarligida Sariosiyo tumani 12-sonli maktabda vohadagi umumiy o’rta ta’lim maktablarining 2023-2024 o’quv yiliga tayyorgarligiga bag’ishlangan seminar bo’lib o’tdi. Seminar videokonfrentsaloqa shaklida o’tkazilib, unda ta’lim sohasi mas’ullari, boshqarma boshliqlari, shahar va tumanlar studiyalaridan sektor rahbarlari, mutasaddilar hamda maktab direktorlari ishtirok etdi.

Seminarda maktablarni yangi o’quv yiliga puxta tayyorlash, jamiyatda o’qituvchi obro’-e’tiborini oshirish, ularni vazifasidan tashqari ishlarga jalb qilmaslik, ta’lim sifatini yaxshilash borasidagi masalalar muhokama qilindi. Viloyat rahbari o’qituvchilarni o’z vazifasidan tashqari ishlarga jalb qilgan har qaysi darajadagi rahbarga nisbatan keskin choralar ko’rilishini ta’kidladi.

Ta’lim muassasalari sharoitlarini yaxshilash, yangi o’quv yiliga tayyorlash maqsadida viloyat mahalliy byudjetidan 11 mlrd 195 mln so’m mablag’ ajratilib, maktablarning ichki va tashqi yoritish chiroqlarini yangilash, o’quv binolarining pol, ichki va fasad qismlarini ta’mirlash uchun zarur bo’lgan materiallar xarid qilindi.

Xarid qilingan ushbu materiallar seminar yakunida barcha hududlarda ta’mirlanishi rejalashtirilgan maktablar direktorlariga topshirildi va mutasaddilarga ta’mirlash ishlarini qisqa fursatlarda yakunlash topshirig’i berildi.

Shuningdek, viloyat rahbari tumandagi 12-sonli umumta’lim maktabidagi mavjud sharoitlar, uning yangi o’quv yiliga shaylik holatini ko’zdan kechirdi.

Surxondaryo viloyati hokimligi Matbuot xizmati